

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.M.Rasulov

Axborot va axborot makonining ijtimoiy-siyosiy kontseptual asoslari 235

A.A.Salmonov

Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy-siyosiy omillari 240

B.X.Tolipov

Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom raqobat madaniyati
asosida rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari 245

F.A.Mirzayeva

Zamonaviy tariqatchilikdagi ijtimoiy-siyosiy muammolar yechimida
"Maktubot" asarining ahamiyati 249

I.M.Arzimatova

Boshqaruv tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish muammolari 254

I.A.Asatulloev

Siyosiy ta'sirni amalga oshirish vositalari va mexanizmlari 260

O.M.Karimov

Majburiy mehnatga qarshi kurashda xorij tajribasi: muammo va yechimlar 266

Q.Sulaymonov

Siyosiy madaniyatning milliy-madaniy negizlari va o'ziga xos xususiyatlari 269

A.A.So'fiev

Tadbirkor shaxs huquqiy madaniyatini oshirishning ijtimoiy zarurati 273

M.R.Sodiqova

O'zbekiston ipakchilik sanoatida xalqaro hamkorlik aloqalari va uning iqtisodiy
ahamiyati (2000-2021-yillar) 278

S.A.Soxibov

Korrupsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri: O'zbekiston va global kontekstda oqibatlar tahlili 282

Q.A.Pulatov

Sotsial transformatsiya sifatida tizimli jarayon: falsafiy va tarmoqlararo tahlil 286

D.E.Normatova

Qadimgi Xitoyda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy qarashlar 290

O.M.O'sarkulov

O'zbekistondagi koreys diasporasi milliy identikligining asosiy ko'rinishlari 294

G.I.Hashimova

Harbiy ijtimoiy ish – davlat va fuqarolik institutlarining kontseptual-nazariy,
siyosiy-huquqiy faoliyati tizimi sifatida 299

I.A.Rakhimov

Problems with performance indicators (KPI) set by mahalla chairmen
when evaluating the performance of the "Mahalla seven" 304

S.P.Tojiboyev

Davlat boshqaruvida korrupsiogen xatti-harakatlarning psixosotsial ildizlari 308

TARIX**F.M.Rahmonberdiyev**

XX asr 20 – 50-yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarining B.Ahmedov hayotida aks etishi 313

F.M.Rahmonberdiyev

Tarixshunoslikda akademik Bo'riboy Ahmedov hayoti va ilmiy faoliyatini
davrlashtirish masalalari: yangi talqinlar 321

E.A.Botirov

Bir olimning izlari: L.M. Landa shaxsiy fondi sahifalariga nigo 328

O.A.Radjabov

Tojikiston temiryo'l tashkiloti va uning faoliyati tarixi 332

S.B.Mamataliyeva

Turkistonning islomgacha bo'lgan davrdagi shishalari tarixi 336

S.I.Yoqubjonov

O'zbekiston hunarmandchiligi: rivojlanishi va xalqaro maydonda bugungi o'rni 342

D.A.Qosimov

Turkiston o'lkasida Farg'ona viloyati pochta-telegraf tizimining tarixiy



UO'K: 316.42:316.77(575.1)(950.5)

O'ZBEKISTONDAGI KOREYS DIASPORASI MILLIY IDENTIKLIGINING ASOSIY KO'RINISHLARI**ОСНОВНЫЕ ПРОЯВЛЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ КОРЕЙСКОЙ ДИАСПОРЫ В УЗБЕКИСТАНЕ****THE MAIN ASPEKTS OF THE NATIONAL IDENTITY OF THE KOREAN DIASPORA IN UZBEKISTAN****O'sarkulov Oybek Mirodilovich** 

Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekistonda istiqomat qiluvchi koreys diasporasining milliy identikligini shakllantirish va namoyon etish jarayonlari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tadqiq qilingan. Diasporaning milliy o'zligini saqlashdagi asosiy ko'rinishlar – madaniy-marosimiy an'analar, til va madaniy meros, ijtimoiy integratsiya hamda tarixiy xotira bilan bog'liq jarayonlar ochib berilgan. Shuningdek, 1937-yilgi deportatsiya tajribasining kollektiv ong va milliy o'zlikni shakllantirishdagi falsafiy ahamiyati alohida yoritilgan. Globalizatsiya sharoitida Janubiy Koreya bilan aloqalarning kuchayishi diasporaning milliy identikligini qayta ishlab chiqarish, uni yangicha shaklda boyitish imkonini berayotgani asoslangan.

Аннотация

Данное исследование посвящено социально-философскому изучению основных проявлений национальной идентичности корейской диаспоры в Узбекистане. Рассмотрены культурно-обрядовые традиции, язык и культурное наследие, процессы социальной интеграции и сохранения исторической памяти. Сделан вывод о том, что национальная идентичность корейской диаспоры выступает не только как историко-культурное наследие, но и как социально-философский процесс, отражающий принцип «единства в многообразии» в полиэтническом обществе.

Abstract

This study is devoted to the socio-philosophical analysis of the main manifestations of the national identity of the Korean diaspora in Uzbekistan. It examines cultural and ritual traditions, language and cultural heritage, processes of social integration, and the preservation of historical memory. Special attention is given to the philosophical interpretation of the 1937 deportation experience and its role in shaping collective consciousness. It is emphasized that under globalization, the strengthening of ties with the Republic of Korea contributes to the renewal and reproduction of the diaspora's national identity. The study concludes that the national identity of the Korean diaspora represents not only a historical and cultural heritage but also a socio-philosophical process reflecting the principle of "unity in diversity" in a multiethnic society.

Kalit so'zlar: koreys diasporasi, milliy identiklik, ijtimoiy-falsafiy tahlil, madaniy meros, tarixiy xotira, deportatsiya, globallashuv, integratsiya, polietnik jamiyat

Ключевые слова: корейская диаспора, национальная идентичность, социально-философский анализ, культурное наследие, историческая память, депортация, глобализация, интеграция, полиэтническое общество

Key words: korean diaspora, national identity, socio-philosophical analysis, cultural heritage, historical memory, deportation, globalization, integration, multiethnic society

KIRISH

Istiqlool davri xalq a'nanalari, urf-odatlar va tilning saqlanishi hamda diasporaning yanada hamjihat bo'lishi uchun yangi imkoniyatlar yaratib berdi.

Hozirgi kunda Koreya milliy markazi assotsiatsiyasida koreyslar o'z ona tillarini o'rganadilar boshqa etnik birlashmalar bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasining davlat va milliy bayramlarini hamda Sollar-koreyscha yangi yil, Tano yoz bayrami va Chusok – hosil bayrami kabi koreys xalqining milliy bayramlarini nishonlaydilar. Har bir markaz qoshida folklor raqs ashula jamoalari tuzilgan, ona tili to'garaklari, shaxmat va sportning milliy turlari bo'yicha mashg'ulotlarini o'tkazib kelmoqdalar. Bundan tashqari har yili markazda Oqsoqollar kengashi va diniy marosimlarni tashkil qilish bo'yicha muassasalar faol ishlamoqda. Har yili "O'zbekistonlik koreyslarning an'analari va urf-odatlarini" respublika konferensiya seminari o'tkaziladi. Ushbu anjuman natijalari bo'yicha mvzuga oid qo'llanmalar va risolalar nashr qilinmoqda. Koreya milliy markazi

SIYOSAT

assotsiatsiyasi faoliyatini yoritib boruvchi nashr "Koryo Sinmun" o'zining dunyoga kelganini e'lon qildi. Gazetaning ilk soni 1997-yil 19-sentabr Toshkent shahridagi Tezkor bosma nashriyotida 5000 nusxada bosib chiqarildi, yana bir nashr "Корейцы Узбекистана" gazetasi 2019-yil 1-noyabrdan nashr etila boshlandi.

Hozirgi davrda teleko'rsatuv va radioeshittirishlar mamlakatimizda yashovchi 20 dan ortiq millat va ellatlarning tillarida efirga berib borilmoqda. O'zbekiston kanalida Do'stlik studiyasi tomonidan tasvirga olib uzatiladigan "Yagona oilada", "Yagona osmon ostida", "O'zbekiston umumiy uyimiz", "Chinsen", "Didar", "Adolatli bo'lishga intilib", "Elomon", "Ranf" kabi ko'rsatuv va radioeshittirishlar shular jumlasidandir. Koreya milliy markazi assotsiatsiyasi o'z faoliyatini barcha koreys oilalarini milliy yozuvni o'rganishdan boshladi va bu borada jiddiy ijobiy o'zgarishlarga erishdi. 1992-yil may oyida Toshkent shahrida Koreya Respublikasi elchixonasi huzurida Koreya Respublikasi Ta'lim markazi (KRTM) ochildi. Ushbu markaz qisqa vaqt ichida koreyslar orasidagina emas, balki koreys bo'lmaganlar orasida ham mashhurlikka erishdi. Masalan, 2008-yilda birinchi semestrda KRTM tomonidan taklif etilgan turli koreys tili kurslariga jami 1198 nafar tinglovchi ro'yxatdan o'tgan.

Hozirgi kunda O'zbekistonning poytaxti va yirik shaharlarida 24 ta koreys milliy-madaniy markazlari faoliyat ko'rsatmoqda. Markaz orqali koreys tili, tarixi, madaniyati va ularning yutuqlari o'rganilmoqda. Ma'lumki, barcha diasporalar taraqqiyotining uch asosiy bosqichni boshidan kechiradi. Bular 1) shakllanish; 2) rivojlanish; 3) tarqalish yoki transformatsiya (boshqa shaklda namoyon bo'lish). Bunda shakllanish davrida diaspora oldida turadigan asosiy vazifa xalqning tilini, madaniyatini himoya qilish, uning jismoniy hayot bo'lishiga kurashishdan iborat. O'zbekistonning poytaxti va yirik shaharlarida 24 ta koreys milliy-madaniy markazlari faoliyat ko'rsatmoqda. Markaz orqali koreys tili, tarixi, madaniyati va ularning yutuqlari o'rganilmoqda. Kore-mar - bu, asosan og'zaki nutqda mavjud bo'lgan va faqatgina oilaviy-maishiy muhitda qo'llaniladigan (Markaziy Osiyolik) koreyslar (yohud kore-saram) tilidir. Kore-mar uzoq yillar davomida o'zining ona til makonidan izolyatsiyada yashadi, u rus tilining, shuningdek, Markaziy Osiyo xalqlari tillarining kuchli ta'siriga uchradi. Natijada, kore-mar tilida hozirgi kunda Shimoliy Xamgyon (Shimoliy Koreya hududidagi viloyat) viloyatida allaqachon qo'llanilmayotgan leksik birliklar uchraydi. Bundan tashqari, uning grammatikasi va fonetikasi ham sezilarli o'zgarishlarga uchragan. Shu bois, kore-mar o'ziga xos, noyob lingvistik hodisa sifatida baholanadi. Koryo mar tili bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bu ishni birinchilardan bo'lib yosh Amerika Qo'shma Shtatlaridan koreys olimi Ross Kingning tadqiqotlarida shunday mavzuga aylangan edi, u koryo mar bo'yicha Garvard universitetida doktorlik dissertatsiyasini (PhD) himoya qilgan. Sovet koreyslarining assimillatsiyasi va til haqidagi Xur Sent Chulning maqolasini ham eslatib o'tish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

XX asrning 70-yillarida sovet koreyslarining rus tiidagi badiiy asarlari dabiyl maydonga chiqdi. Ularda Anatoliy Andreyevich Kim qayta qurish davrida Qozog'istonlik faylasuf Pak Irina Aleksandrovna va sovet koreyslarining qo'shiq madaniyatida Ten Chu va teatrida esa Kim Iosif Fedorovichlar alohida o'rinni egallaydi.

Koreys tilini o'qitilishi va pedagogikasida. Bo'lim asoschisi va o'qituvchisi V. F. Kanning qat'iy sa'y-harakatlari natijasida amalga oshdi. 1990-yilda institutda Koreys tili va adabiyoti kafedrasini tashkil etilishi koreys tilining O'zbekiston oliy ta'lim muassasalaridagi akademik maqomini mustahkamladi. 1993-yilda esa Toshkent davlat sharqshunoslik institutida koreys tili bo'limi ochildi. 2005-yilda O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida Koreys filologiyasi kafedrasining tashkil topishi bilan davom etdi. Shuningdek, Samarqand chet tillar instituti qoshida ham koreys tili va adabiyoti bo'yicha ixtisoslashgan bo'lim faoliyat yuritmoqda. Mazkur oliy ta'lim muassasalarida koreyshunoslik yo'nalishida bakalavr va magistrilar tayyorlanmoqda. 2013-yili Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) tashkiloti homiyligida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (sobiq instituti) da elektron kutubxona tashkil etildi. Shu bilan birga, 2018-yili tashkil etilgan Koreyashunoslik fakulteti qoshida ham kutubxonaga asos solindi. Bugungi kunda kutubxona fondida 10000dan ortiq koreys tili, koreys tilini o'qitish metodikasi, koreys tili bo'yicha test sinovlari, koreys adabiyoti, tarixi, madaniyati, iqtisodiga oid o'quv qo'llanma va darsliklardan tashqari badiiy adabiyotlar ham mavjud. Kutubxona fondi har yili Koreya Respublikasining qator tashkilotlari, oliy ta'lim muassasalari tomonidan doimiy tarzda etkazib berilayotgan o'quv adabiyotlari bilan boyitilmoqda. Hozirgi kunda Markaziy Osiyodagi etnik koreyslarning deyarli barchasi, istisnolarni

hisobga olmaganda, rus tilida so'zlashuvchi hisoblanadi. Bu holat, bir tomondan, ularga Sovet davrida qisqa vaqt ichida intellektual yuksalish va bilimli ijtimoiy qatlamlar safidan o'rin egallash imkonini berdi. Ammo, boshqa tomondan, bu jarayon ularning tarixiy ona tilidan uzoqlashishiga olib keldi.

Ayni damda, ayniqsa O'zbekistonda, til muhiti tubdan o'zgarib bormoqda va bu o'zgarishlar etnik koreyslar uchun "teskari integratsiya" – ya'ni o'z ona tiliga, tarixiy-madaniy ildizlariga ongli va faol ravishda qaytish imkonini taqdim etmoqda. Koreys tilining amaliy, ijtimoiy va madaniy ahamiyati sezilarli darajada oshib borayotgan bir sharoitda, bu jarayon nafaqat tilni organishga, balki milliy ongni tiklashga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonning 12 ta oliy o'quv yurtida va 48 ta maktab hamda litseyida koreys tili o'qitiladi. 1989-yilgi aholini ro'yxatga olish natijalariga ko'ra, O'zbekistonda 183-140 nafar koreys yashagan. Ushbu ro'yxatga olish ma'lumotlariga tayanilsa, 45 yoshdan katta koreyslar orasida 73,9% koreys tilini o'z ona tili deb ko'rsatgan bo'lsa, 45 yoshgacha bo'lganlar orasida bu ko'rsatkich atigi 49,8% ni tashkil etgan.

Ko'plab yoshlar bu universitetni tanlashining asosiy sababi — Koreyada talim olishni davom ettirish va o'zi orzu qilgan kasbni egallash istagidir. Chunonchi ular universitetga kirishdan oldin koreys tilini o'rganishga kirishadilar, chunki bu til kelajakdagi kasbiy yo'nalishlarini belgilashda muhim omilga aylanmoqda

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shuni alohida ayd etish joizki, 1989-yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston hududida 183 140 nafar koreys millatiga mansub aholi istiqomat qilgan. Ushbu demografik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 45 yoshdan katta koreyslar orasida 73,9 foiz respondent koreys tilini o'z ona tili deb ko'rsatgan bo'lsa, 45 yoshgacha bo'lganlar orasida bu ko'rsatkich 49,8 foizni tashkil etgan. Biroq statistik ko'rsatkichlar har doim ham real til bilish darajasini aks ettira olmaydi. Chunki koreys tilini "ona tilim" deb e'tirof etgan ko'plab insonlar amalda bu tilni erkin so'zlash, o'qish va yozish darajasida bilmagan. Bu esa milliy identitet va tilga nisbatan emotsional bog'liqlik real funksional savodxonlikdan ancha farqlanishini ko'rsatadi. Natijada, o'sha davr holatiga ko'ra, koreys tilida o'qish va yozish qobiliyatiga ega bo'lgan koreyslar soni atigi 3517 nafarni tashkil etgan. Bu esa umumiy koreys aholining bor-yo'g'i 2 foiziga teng bo'lgan. Bu faktlar, bir tomondan, sovet zaminidagi til siyosatining natijasini ochib bersa, boshqa tomondan, avlodlararo til uzilishining qanchalik chuqur bo'lganini ko'rsatadi. Shuningdek, bu ma'lumotlar koreys tilining o'sha davrdagi real ijtimoiy mavqei va kundalik hayotdagi roli qanchalik pasayganini ham anglatadi.

Assoatsatsiya rahbariyati o'z ish faoliyatida koreys diasporasidagi koreys yozuvi savodsizligini tugatishga ham kata e'tabor berdi. Shu maqsadda Koreya Respublikasi mazkur tadbirlarning barchasini moddiy jihatdan ta'minlashda O'zbekistonga yaqindan yordam berib kelmoqda. Bunda Janubiy Koreyaning KOICA (Korea International Cooperation Agency) - ya'ni Koreya Xalqaro Hamkorlik Agentligi katta hissa qo'shmoqda. O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'rtasidagi do'stlik, hamkorlik aloqlarini mustahkamlashga alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Farg'ona viloyat koreys milliy madaniy markazi Farg'ona va Qo'qon shaharlarida koreys tilini o'rganish kurslarini tashkil etdi. 1995-yilgacha bu erda 200 dan ortiq koreys millati vakillari o'z milliy tillarida yozish va o'qishni o'rgandilar.[1] Farg'ona davlat universiteti akademik litseyida ham koreys tilini o'qitishga va savodxonligiga Janubiy Koreyaning KOICA tashkiloti ham yaqindan yordam berib kelmoqda. Bu o'quv dargohida 2015-yildan Janubiy Koreyadan kelgan pedagog Kvak Xyo Jong, 2017-yildan Kim Young Gue, 2024-yildan Kim Yong Nam ishlab kelmoqda.

KOICA volontyorlari (Janubiy Koreya xalqaro hamkorlik agentligi) bu borada muayyan amaliy yordam ko'rsatib kelmoqda. Biroq, koreys tilini saboq berishda uslubiy jihatdan tayyorlangan, ham tilni chuqur biladigan, ham uni o'rgatish uslubiyotiga ega bo'lgan mahalliy mutaxassislariga ehtiyoj O'zbekistonning chekka hududlarida sezilarli darajada. O'zbekistonda bir qator maktab va oliy ta'lim muassasalari koreys tili fakultetlarining ochilishi beqiyos ahamiyatga ega bo'ldi. Bu nafaqat koreys diasporasi madaniy-ma'rifiy ehtiyojlarini ta'minlash, balki kengroq ma'noda til siyosati va milliy va etnik identitetning tiklanishi va saqlanishiga xizmat qildi. Yurtimizda yashayotgan iqtidorli yoshlar orasida ko'plab koreys millati vakillarining erishayotgan yutuqlari beqiyosdir. Shunday iqtidor egalaridan biri Farg'ona shahridagi 40-sonli maktab o'qituvchisi Igor Yan Respublikamizda o'tkazib kelinayotgan "Yil o'qituvchisi" ko'rik tanlovida 1-o'rinni egalladi. Bu narsa shuni anglatadiki, koreys diasporasi va o'zbek xalqini yagona mushtarak maqsadlar yurt rivoji yo'lida muvaffaqiyatlarga erishayotganidan dalolat beradi.

SIYOSAT

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan ko'p o'tmay, 1992 yilda Janubiy Koreya bilan diplomatik aloqalar yo'lga qo'yildi. Texnika, ta'lim va ilmiy sohalarida hamkorlikni nazarda tutuvchi bitimlar imzolandi va ularda, albatta, til kurslarini rivojlantirish (Seul lahjasi asosida) muhim o'rin egalladi. Globallashuv jarayonlarining kuchayib borayotgan bugungi davrida xalqaro munosabatlar tizimida mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilish, davlatlararo diplomatik aloqalarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish masalasi O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatidagi ustuvor prinsiplaridan biriga aylangan. Ayniqsa, barqaror rivojlanish va tinchlik va barqarorlik muhitini ta'minlash zamonaviy jamiyatlar uchun muhim shart bo'lib qolmoqda. Bugungi kunga kelib, O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy yo'nalishlarda jadal rivojlanmoqda. Bu esa ikki xalq o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va ma'naviy yaqinlik asosida shakllanayotgan strategik sheriklik timsolidir.

Koryo-saramlarning yangi avlodi o'zlarining "ona" Shimoliy Koreya lahjasidan voz kechib, agar til o'rganilayotgan bo'lsa, asosan Janubiy Koreya tilini tanlamogda. Bu holat esa, ehtimol, Janubiy Koreyaning Koryo-saramlar etnik yaqinligini siyosiy-iqtisodiy maydonda o'ziga yo'l ochuvchi vosita sifatida instrumentalizatsiya qilayotganini anglatadi. Bu erda diaspora konsepsiyasidagi "vatanning" mavhumligi muhim rol o'ynaydi: ya'ni Janubiy Koreya Koryo-saramlar uchun tarixiy va kelajakdagi "vatan" rolini egallashga urinmoqda.

Koreyslarning Markaziy Osiyoga majburiy ko'chirilishi va ularning milliy tilida ta'lim tizimining tugatilishidan avval, koreys tili SSSR xalqlari tillaridan biri sifatida tan olingan edi. Bu holat tilga nisbatan rasmiy yondashuv mavjud bo'lganligini bildiradi. Ammo keyinchalik, uzoq yillar davomida koreys tili asosan og'zaki va so'zlashuv shaklida mavjud bo'lib qoldi. U rasmiy maqomdan mahrum bo'ldi va madaniy hayotda cheklangan rol o'ynay boshladi. Biroq, Sovet davlatida nashr qilingan adabiyotlar statistikasi bo'yicha koreys tili "chet el xalqlari tillari guruhi"ga kiritilgan. Bu tasnif, bir tomondan, koreys tilining rasmiy maqomsizligini anglatgan bo'lsa-da, boshqa tomondan, nisbatan real holatni ham aks ettirar edi[2]

XULOSA

Koryo-mar deyarli yozma shaklga ega emas, u radio va TV dasturlarida yoki teatr sahnasida faol ishtirok etmaydi, ommaviy axborot vositalarida yoki ijtimoiy tarmoqlarda mavjud emas va maktablarda o'qitilmaydi — u so'nib borayotgan tildir. Yana o'n besh-yigirma yil ichida bu noyob til hodisasining sohiblari qolmasligi ehtimoldan holi emas

Koreys, o'zbek va rus tillarini egallash darajasini solishtirgan holda aytish mumkinki, Koryo saramlarning mutlaq ko'pchiligi uchun rus tili asosiy aloqa vositasidir. Koreyslarning 90–95 foizi rus tilida bimalol sozlasha oladi. Aslida, rus tilini bilmaydigan birorta ham Koryo saram bolaning yoki kattalarning mavjud emasligi kuzatiladi. O'zbekiston koreyslarining madaniy afzalliklari haqida o'tkazilgan so'rov natijalari ularning o'z tarixiy ildizlari bilan qanday munosabatda ekanini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Javoblarga qaraganda, ular asosan rus va sovet musiqasini tinglashni afzal ko'radi: respondentlarning 90,2 foizi sevimli qo'shiqlari rus tilidagilardan iboratligini aytgan. Sevimli qo'shiqlari ro'yxatida ham rus va sovet qo'shiqlari etakchilik qiladi (71,8%), xorij qo'shiqlari 19%, koreyscha – 6,6%, o'zbekcha esa atigi 2,6%ni tashkil qiladi. Xuddi shu tendensiyani sevimli xonandalar bo'yicha ham kuzatish mumkin: 65% rus yoki sovet, 25,3% xorijlik, 4,5% MDH dagi koreyslar, 2,6% esa Janubiy Koreyadan.[3]

Shunday qilib, so'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston koreyslarining madaniy o'ziga xosligi murakkab, qatlamli va ko'p madaniyatli. Ularning "koreyslik" tushunchasi birinchi navbatda nasl (83,5%), an'analar (55%), til (41%) va oshxonaga (34%) bog'langan. Ko'pchilik uchun koreys bo'lish – bu avloddan-avlodga o'tgan ajdodiylikni anglatadi, lekin bugungi hayotda bu "koreyslik" birinchi o'rinda turmaydi. Ular ko'proq ko'p millatli, madaniyatlararo muhitni afzal ko'radi (81,7%), bu esa ularning o'ziga xos sintetik madaniy genetikasidan dalolat beradi. Bu holat, albatta, tarixiy kontekst bilan chambarchas bog'liq: majburiy deportatsiya, yangi hududda moslashuv, til va madaniyat almashinuvi, jamiyat bilan integratsiyalashuv – bularning bari Koryo saram (O'zbekiston koreyslari) ning o'zligini shakllantirdi. Ular ko'p millatli muhitda yashashni bir millat doirasidagi hayotga nisbatan qulayroq deb biladi, hatto millatlararo nikohga ham nisbatan ochiq munosabatda bo'lishadi (30% ijobiy, 39% indifferent).

Taniqli koreysshunos olim V.S. Xan ta'kidlashicha "Men SSSRdagi, hozirgi MDH dagi koreys diasporasining madaniyat tarixiy tajribasi qandaydir darajada Koreya yarim orolidagi koreyslarning hozirgi va kelajakdagi tajribasini oldindan aytib berganiga chuqur ishonaman. Ular uzoq vaqt

davomida sof milliy madaniyat anʼana va unga mos keladigan ong va xulq-atvor turlari doirasida rivojlangan va faqat nisbatan yaqinda boshqa koreys (chet el) madaniyatiga ochilib uni oʻziga singdirib “begona” tashqi mavjulikning qoidalari va shartlarini qabul qila boshladilar”

Xulosa shuki, Koryo saramlar uchun “koreyslik” birgina til, kiyim-kechak yoki rasm-rusum bilan emas, balki oʻziga xos madaniy sintez va tarixiy yoʻl bilan belgilangan. Bu ularni nafaqat koreys, balki bir vaqtning oʻzida oʻzbek va rus madaniyatiga ham yaqinlashtiradi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: yangi tahrir. - Toshkent: Oʻzbekiston, 2023
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga moʻljallangan taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-60 sonli Farmoni 28.01.2022-yil.
3. Kim S., Pacher A. The Koryo saram in Uzbekistan and Their Relations to South Korea // Korean Diaspora – Central Asia, Siberia and Beyond / eds. J. Reckel, M. Schatz. – Göttingen: Universitätsverlag Göttingen, 2020. – P. 51
4. Корейская диаспора в Центральной Азии: история, культура и социальная жизнь / отв. ред. В.В. Нам, В.С. Хан. – Ташкент: Университет Пучон в Ташкенте, 2024. – С. 31
5. Koreya milliy madaniya markazi assoatsatsiyasi tomonidan 85 let istoriya koreytsev Uzbekistana T.
6. Toshev A.B Yangi Oʻzbekistonda millatlararo toruvlik va diniy bagʻrikenglikni taʼminlash T.: 2024 “Tasvir” B-7
7. Коре сарам. Энциклопедическое издание / Сост. Ким В.Н., Ким М.И., Чен В.С. – 2-е изд. – М.: Первая Образцовая типография, филиал «Чеховский Печатный Двор», 2020. – С.-281
8. Haynazarov. B.B Oʻzbekiston uygʻurlari diasporasi tarixi (1925-2012) 07.00.01 Oʻzbekiston tarixi boʻyicha falsafa doktori (PhD) uchun yozilgan dissertatsiya. T.: 2018. 104-b